

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI



**ANNAQULOVA JUMAGUL NARQOBILOVNAning**

**5110800 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lif yo'nalishi  
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA HAYKALTAROSHLIK DARSLARINI  
TASHKIL ETISH VA O'QUVCHILARNI BUYUST ISHLASHGA  
O'RGATISH**

**mavzusida yozgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbari  **M.M. MUHAMMADIYEV.**

QARSHI - 2015

QARSHI - 2015

## **MUNDARIJA:**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. Haykaltaroshlik san'at.....</b>	<b>9</b>
1.1 Haykaltaroshlik san'ati va uning turlari.....	9
1.2 O'zbekistonning qadimgi va bugungi haykaltaroshlik san'ati.....	18
<b>II BOB. Kasb-hunar kollejlarida tasviriyl san'at darslarida         haykaltaroshlik mashg'ulotlarining o'qitilishi.....</b>	<b>27</b>
2.1. Kasb-hunar kollejlarida tasviriyl san'at mashg'ulotlarining mazmuni va DTS.....	27
2.2. Kasb-hunar kollejlarida haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlari va uni olib borish.....	30
2.3. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlarini olib borishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	33
2.4. O'quvchilarni byust ishslashga o'rgatish.....	41
<b>XULOSA .....</b>	<b>47</b>
<b>IIIYUSTRATSIYALAR.....</b>	<b>48</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>52</b>

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi, xalq pedagogikasi an'analarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalg etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san'at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi. Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san'at sohalarida ham tub o'zgarishlar davri kechmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini, har tomonlama ilmiy o'rghanish va tahlil etish g'oyat muhimdir. "Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi prezidentimiz I.A.Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, ilmiy davlatchiligidan negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak." Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda Respublika hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili " Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur" qabul qilindi. Unda "O'zbekiston Respublikasining

ta’lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko‘p asrlik an’analar, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi” deyilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida “Yosh avlodni ma’naviy- ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy- madaniy, tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi” deyilgan.

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarida, ta’lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi muhim tamoyil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Ta’lim islohotlarida ushbu tamoyilga asoslangan, ta’lim oluvchilarning har tomonlama uyg‘un kamol topishi, erkin va mustaqil fikr yuritishga yo‘llaydigan ta’limning mukammal mexanizmini yaratish muhim vazifa qilib qo‘yilgan.

Tasviriy san'at inson ma'naviy olamini boyitadigan, ayniqsa yoshlarning estetik tarbiyasida muhim rol o'ynardigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Mamlakatimiz o’z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab hukumatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga e’tibor berishni eng muhim vazifa deb qaraldi. Chunki, har bir davlat o’z kelajagini sog’lom, ma’naviy barkamol bo’lgan, ilmli yoshlar misolida ko’radi.

«Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o’sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog’bondek noziklik va mehr bilan oqilona amalga oshirish lozim», deb ta’kidlanadi Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimovning “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” asarida.

Zotan, takomil ma'naviy madaniyat va san'atsiz, milliy qadriyatlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarmasdan turib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emasligi ayon bo'ldi.

Shu munosabat bilan, 1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da estetik turkumdag'i fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan, uning «Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari» qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

### **Bitiruv malakaviy ishning dolzarbli:**

Yoshlarga tasviriy san'at darslarini o'qitishda yangicha metod va usullarni izlab topish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari ayniqsa dolzab mavzulardan hisoblanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida ham tasviriy san'at darslarining muhim bo'g'ini bo'lган “kompozitsion faoliyat” mashg'ulotlari, jumladan haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlarini olib borish, uning o'ziga xos jihatlari aniq bir mashg'ulot misolida yoritilib berishga harakat qilindi. Tasviriy san'at darslarida kompozitsion faoliyat mashg'ulotlari o'z mazmuniga ko'ra bir necha turga bo'linadi va bu darslarni o'qitish ma'lum murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun mashg'ulotlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlarini o'qitish, tashkil etish borasida muayyan qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ishga metodik jihatdan puxta tayyorgarlikni talab qiladi.

Kasb-hunar kollejlarida mutaxassislik fanlarining mazmunini aniqlash, o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'quv jarayoniga muammoni tadbiq etish, o'quv materialining mazmuni va tuzilishining mukammaligi, o'quvchilar saviyasiga mosligi, ilmiy bilish jarayonida faollikni kuchaytiradi va pedagogik samaradorlikni oshiradi. “Kasb-hunar kollejlarida

haykaltaroshlik darslarini tashkil etish va o'quvchilarni buyust ishlashga o'rgatish" mavzusi ham dolzarb muammolardan bo'lib, u ta'limda yangicha usullarni ishlab chiqish va samarali foydalanishni taqoza etadi.

Mazkur malakaviy ish ana shu dolzarb muammoni hal qilishga qaratilgan.

### **Muammoni o'r ganilganlik darajasi:**

Bitiruv-malakaviy ishda ko'r ilayotgan muammo ilgari ham har tomonlama o'r ganilib chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan. Masalan, bu muammolar yechimi S.Abdirasilov, B.Boymetov, N.Tolipov tomonidan 2006 yilda chop etilgan "Tasviriy san'at" o'quv qo'llanmasida, Rahim Hasanovning "Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar" kabi qo'llanmalarida atroflicha ishlab chiqilgan. Ammo bu mavzu doirasida, xususan, kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at darslarida, jumladan haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlarida o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash hali to'liq ishlab chiqilmagan. Malakaviy ishda ana shu kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llari taklif qilingan.

### **Mavzuning maqsadi:**

Bitiruv-malakaviy ishini bajarishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutilgan:

- O'zbekistonning qadimgi va bugungi haykaltaroshlik san'ati haqidagi manbalarni o'r ganish va tahlil qilish;
- kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at masg'ulotlari mazmuni bilan yanada yaxshiroq tanishib chiqish;
- haykaltaroshlik mashg'ulotlarida o'rgatishning eng muhim qirralariga to'xtalib, aniq misollar asosida yoritishga e'tibor berish;
- kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at darslarida o'tiladigan haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlari ishlanmasini zamonaviy pedagogik texnalogiyalarini qo'llagan holda ishlab chiqish;
- o'quvchilarni buyust ishlashga o'rgatish mashg'ulotini amaliy jihatdan ishlab chiqish;

### **Mavzuning vazifalari:**

Mavzuni bajarishda quyidagilarni amalga oshirish vazifasi qo'yildi:

- tasviriy sanatning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berish;
- tasviriy san'atdan Davlat Talim Standartlarining mazmun va mohiyatini o'rghanish;
- kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at darslari, jumladan kompozitsion faoliyat darslarini o'qitishning zamonaviy metodlarini o'rghanish va tadqiq qilish;
- Mashur rassomlarning kompozitsiya sohasidagi tajribalarini o'rghanish;
- tarixiy shaxslar yoki taniqli kishilar buyustini yaratish va uning bajarilish texnologiyasini ishlab chiqish;

### **Bitiruv malakaviy ishning obe'kti:**

Kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at ta'limiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbig'iga asoslangan va o'qitish usullari va metodlarini ishlab chiqishga qaratilgan o'quv jarayoni.

### **Bitiruv malakaviy ishning predmeti:**

Tasviriy san'atdagi kompozitsiya mashg'ulotlarini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish yo'llariga bag'ishlangan o'quv materiallari mazmuni, shakli va tanlash tamoyillari.

### **Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va ularning metodologik asosi:**

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturilari, Prezident I.A. Karimovning ta'lim tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan nutqlari, unda bayon etilgan yondashuvlari, tadqiqot muammosiga oid ilmiy-metodik pedagogik adabiyotlarga tayanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati:**

Bitiruv-malakaviy ishini bajarishda olib boriladigan tadqiqotimizning imiy yangiligi shundaki, unda kasb-hunar kollejlarida o'tiladigan tasviriy san'at darslari, xususan kompozitsiya mashg'ulotlarini an'anaviy va noananaviy usullardan foydalangan holda olib borishning samarali yo'llari ishlab chiqilmoqda va tavsiya qilinmoqda. Bundan tashqari buyust kompozitsiyasi butunlay yangi bo'lgan eskizlar asosida ijodiy ishlab chiqilmoqda. Ishlab chiqilgan metodlar amaliyotda sinab ko'rilib undan umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari

tasviriy san'at fani o'qituvchilari, shu sohada ta'lif olayotgan talabalar foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv-malakaviy ishning hajmi:**

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, olti bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 55 sahifadan tashkil topgan.

## I BOB. HAYKALTAROSHLIK SAN'ATI.

### 1.1 Haykaltaroshlik san'ati va uning turlari:

Haykaltaroshlik - tasviriy san'atning o'ziga xos turlaridan biridir. Bu san'atda borliq yorug' - soyaga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Turli xildagi stol ustiga qo'yiladigan haykalchalardan tortib park va xiyobonlarga o'rmatilgan haykallar, yodgorliklar, binolarning devorlariga, xuddi shunday turli amaliy buyumlar, tanga, taqinchok, medallarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar barchasi haykaltaroshlik san'atining mahsuli hisoblanadi.

Zamonaviy O'zbekiston naykaltaroshligining boshlanishi juda qadimiydir. Uning kelib chiqishi qadimgi diniy marosimlarni, mifopoetik tasavvur va rivoyatlarni turli etnomadaniy an'analarning, ijodiy iste'dodning dunyoga o'z munosabatini plastika orqali ifodalashga intilishni belgilab beradi. Islom davri mavjud ma'naviy boyliklar tizimini tubdan o'zgartirib, ijodiy iste'dodlardan faqat haykaltaroshliknigina bir oz to'xtatdi. Haykaltaroshlik san'ati rivolining yangi o'rami XX asrda keldi va san'at tarixiga o'lkan ijtimoiy-tarixiy, falsafiy dunyoqarashli, badiiy-estetik o'zgarishlar asri sifatida kirib keladi.

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san'atida ko'p asrli noyob badiiy, milliy hamda xorijiy an'analar mujassamdir. Uni bugungi kunda turli avlod rassomlari har xil ijodiy uslubiy yo'nalishlarda akademik realizm, avangard, postmodernizmda namoyish etmoqdalar. Ba'zi rassomlar mahobatli haykaltaroshlikda ishlashni ma'qul ko'radilar, boshqalari samarali izlanishlarni dastgohli plastikada uyg'unlashtirdilar. "Ozbekiston haykaltaroshligi Mustaqillikning 15 yili davomida" ko'rgazmasi ijodning bu turi rivojidagi asosiy yo'nalish va muommolarini aniqlashga, zamonaviy holatiga baho berishga mazkur davr ijodiy izlanishining o'ziga xos badiiy dunyoqarashi va rivojini tushinishga imkoniyat beradi.

Mustaqillik davri ma'naviy qadriyatlarning yangi tizimini olib kirdi, bosh maqsad etib, milliy o'ziga xoslikni qayta tiklash, milliy - tarixiy madaniy

merosni anglash, san'atda milliy o'ziga xoslikni izlash olindi, natijada bular bevosita mahobatli haykaltaroshlik sohasida namoyon bo'ldi. Ayni paytda, glaballashuv davri halqaro madaniy aloqalarning kengayishi, o'zbek rassomlarning dunyo badiiy merosi bilan tanishuvi haykaltaroshlarga ijodiy izlanishning keng imkoniyatlarni ochdi. Jadallik bilan olib borilayotgan shahar qurilishlari, shahar fazoviyligini farovonlashtirish zaruriyati san'atning ko'pgina turlarini uyg'unlashtiruvchi yangi me'moriy yechimlar islash, dizayn sohasining rivojiga olib keladi, hamda haykaltaroshlikning zaruratini, ya'ni zarur badiiy element ekanligini ko'rsatdi. Fazoviylik, hajm, original g'oya, mavjud haykalning konstruktivligi, postmodernistik san'atning estetikasi cho'qqisiga zamonaviy o'zbek rassomlarini qamrab olgan holda olib chiqadi.

Milliy tarixiy o'tmishimizni qahramonlashtirish I.Jabborov, J.Mirtojiyev, A.Raxmatullayev, L.Ryabsev, K.Norxo'rozov, P. Podosinnikov, M. Aliyevlar ijodlarida yangi mavzuli diapazonlar ochib berdi.

Amir Temur, Mirzo ulug'bek, Al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Muhammad Bobur haykallari ideallashtirilgan obrazlar, ulug'lashtirilgan shaxslar O'zbekistonning turli shaharlarini bugungi kunda o'zbek xalqining mashhur shaxslarini tiklash va ulug'lashtirishda faol ishtirok etmoqda. Shunday bo'lsada ijodiy yondoshuvlar, yangi plastic izlanuvchanlik, ijodiy yechimlar borasida haykaltroshlarimizdan ifodaviylikda erkinlikni, noan'anaviy yechimlar izlanuvida bo'lishlarini kutib qolardik.

Mustaqillik davri haykaltaroshlikning o'ziga xos bo'limi dekorativ haykalni tashkil etadi. Haykaltaroshlarning plastic imkoniyatlari kengayishi, rang qo'llanilishi fazo bilan uyg'unlik tasviriy qatorning mitoforalik hamda yangi intonatsion yo'naliшlaridan haykalning nazmiyligini boyituvchi bo'rttirishlar iztehzolar hisobigadir. Haykallarning mavzulari bugungi kunda o'zida tarixni va zamonaviy syujetlarni mujassamlashtirilgan.



1-rasm. Amir Temur haykali.I.vakjabborovlar.Toshkent.1993yil.

Shubhasiz, O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining o'z yutugli va muommolari mavjud. Haykaltaroshlik bo'yicha xalqaro simpoziumlarni o'tkazish zaruriyati, rassomlarimizning dunyo madaniyatiga chiqishi, yosh iste'dodli haykaltaroshlarni tayyorlash, o'qitish tizimini yaxshilash, obrazli-mazmuniy tizim texnologiyalar, undan tashqari haykallarning shahar muhitiga uyg'un tarzda kirib borishi, uning me'morchilik, lanshaft va ko'pgina boshqa sohalar bilan muhum bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning zamonaviy haykaltaroshligi o'zining tarixiy davrini, uning ustunligini, imkoniyatlarini ko'rsatmoqda. Rassomlarimizning ishlari O'zbekiston san'ati tarixida o'tmishning eng yaxshi an'analarini saqlab, kelajak san'atini yuksaltiradigan holda o'zining munosib o'rmini egallahiga ishonamiz.

Haykaltaroshlik-tasviriy san'atning asosiy turlaridan biri bo'lib,boshqa turlardan o'zining hajmdorligi bilan farq qiladi.Haykaltaroshlik **mazmuniga** ko'ra uch turga bo'linadi.1.Monumental haykaltaroshlik.2.dastgohli haykaltaroshlik.3.Dekorativ haykaltaroshlik.


**Monumental**-fransuzcha-monument so'zidan olingan bolib, yodgorlik degan ma'noni bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turi yirik hajmli,uzoqlan ko'rish uchun mo'ljallangan haykallar kiradi.

Monumental haykallarni yasashda yaxlitlikka e'tibor berilib, mayda elementlarga ko'proq e'tibor berilmaydi va undan nusxa ko'chirib bo'lmaydi.




2-rasm. Amir Temur. I.vakjabborovlar. Shahrisabz. 1996yil.

**Dastgohli haykaltaroshlik.** Bevosita maxsus dastgoh yoki moslama ustida ishlanganligi uchun dastgohli haykaltaroshlik deb aytildi. Haykaltaroshlikning bu turida ko'rgazmalarga qo'yish uchun yoki bir joydan ikkinchi joyga olib borish uchun ishlangan haykallar kiradi.



3-rasm. Haykaltarosh A.V.Loganovskiy. 1836. gips.

**Dekorativ haykaltaroshlik.** Dekorativ- frasuzcha -dekor so'zidan olingan bo'lib, bezatish degan ma'noni bildiradi.Haykaltaroshlikning ushbu turida park va xiyobonlarga,istirohat bog'lariga, inshoatlarning peshtoqlari,ctol ustiga qo'yish uchun mo'ljallangan haykallar kiradi.



4-rasm.

Haykaltaroshlik asarlari **shakligaga ko'ra**, dumaloq va relyefli(qabariq) uhaykallarga bo'linadi. Dumaloq haykallar butun buyust ko'rinishida bo'lishi mumkin.Dumaloq haykallarni hamma tomonidan aylanib ko'rish mumkin bo'ladi. Masalan, maydon va xiyobonlardagi haykal va yodgorliklar, stol ustiga qo'yiladigan har xil haykalchalar bu turga mansubdir.

Qabariq haykallarni **relyef** deb ataladi. Relyef- fransuzcha so'z bo'lib «yuza» degan ma'noni anglatadi. Relyefli haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda kenglik, tabiat manzaralarining ko'rinishi ham aks etadi. Relyef o'z navbatida uch turga bo'linadi. Ular barelyef, gorelyef va kontrrelyefdir.

**1.Barelyefda** tasvir qalinligi yuzaning yarmidan kami bo'rtib chiqqan bo'ladi, ya'ni haykal tekis yuzaga nisbatan bir oz qabargan bo'lib, uning qalinligi o'zining haqiqiy hajmining yarmidan oshmaydi. Barelyef ham fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, «past» relyef degan ma'noni anglatadi.

Barelyeflar ayniqsa amaliy san'at buyumlarini, me'morchilik binolarini bezashda juda qo'l keladi. Qadimgi Yunonistonda hayotda ishlatiladigan turli xil buyumlar: ko'za, guldon, qurol-aslahalarning yuzalarini barelyeflar bilan

bezaganlar, binolarningb devorlariga turli hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlarni ishlaganlar.



5-rasm. Relyef.Troyana kolonnasi.

2. **Gorelyefda** esa bu qalinlikning yarmidan kattrog'i bo'rtib turadi. Gorelyef so'zi ham fransuzcha bo'lib, «baland» relyef ma'nosini bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzadan sezilarli darajada bo'rtib chiqqan bo'lib, uning qalinligi o'zining haqiqiy hajmining yarmidan oshgan bo'lishi shart. Gorelyefga ko'plab tarixiy voqealarga bag'ishlab ishlangan yodgorliklar misol bo'lishi mumkin.



6-rasm.K.V.Izenberg."Steregushey".1911yil.Bronza,granet.

**3. Kontrrelyefda** tasvir yuzada o'yilgan, qirilgan chiziqlar yordamida ishlanadi.

Kontrrelyef relyefning yana bir turi bo'lib, bu o'yib ishlanishi bilan boshqalaridan tubdan farq qiladi. Bunday relyeflar odatda tekis yuzaga o'yib ishlanadi. Yuzani o'yish natijasida hosil bo'ladigan yorug'-soya o'yini hisobiga tasvir ko'zga tashlanadi. Bunday relyeflarning imkoniyati chegaralangan bo'lganidan ular amalga juda kam qo'llaniladi. Ular Qadimgi Misrda ko'plab ishlatilgan.

Haykallar shakl va mazmun jihatdan realistik, dekorativ va abstrakt yo'naliislarda bo'lada.

Realistik haykallarda odam, hayvon va boshqa tasvir obektlari haqiqiy ko'rinishda ifodalansa, dekorativ haykallarda ular stillashgan, ya'ni shakl, o'lchov va boshqa jihatlardan ma'lum darajada o'zgartrilib ifodalanadi. Abstrakt haykallardaga ob'ektlar shakl, mazmun, o'lchov va boshqa jihatlardan mavhumlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Haykaltaroshlikda ijodkor yorug'-soyalar o'yinidan foydalanish orqali o'z haykallarini ta'sirli va jozibali bo'lishiga erishadi. Haykal yorug- soya bilan tirik, ya'ni nur tushishi bilan u ham jonlanadi, yorug'likning o'zgarishi bilan undagi yorug'-soya tovlanishi ham o'zgaradi, natijada, udan tomoshabin oladigan taassurot ham o'zgarib boradi. Bu narsa monumental va dekorativ haykallar uchun juda qo'l keladi.

Haykaltaroshlik asarlarini yaratish uchun turli xildagi materiallardan foydalilanadi. Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulug'vorlik, abadiylik baxsh etsa, aksincha marmarda ishlangan haykallar nozik, ko'rakm ko'rinati. Shuning uchun haykallar o'zining mazmuni va o'rnatiladigan joyiga qarab har xil materiallardan ishlanishi mumkin. Haykaltaroshlik materiallari ko'p, ular quyidagilardan iborat: plastilin, loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hakozalardir. Qimmatbaho metallar-oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi, lekin xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Bunga O'zbekiston

hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo'la oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga harab qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz **monumental, dekorativ va dastgoh** haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi.

Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmunni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga u bevosita muhit bilan bog'liq bo'lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi mumkin



7-rasm. Haykaltarosh Miron. "Diskobol."

Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga hos bo'lgan xususiyatlardan biri bu asar qahramonlarini ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli ular uzoq turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza, granit va betonlardan ishlanadi. Bularidan

tashhari monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, ularda katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi.

Istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlataladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida mustaqil mazmunni anglatib me'morchilik va tevarak-atrofga bog'liq bo'limgan holda kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik kompozitsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlataladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli favvoralar, panjaralar, darvozalarga ishlangan badiiy bezaklarga ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan haykalchalar, loydan ishlangan o'yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi.

Dastgoh haykaltaroshligiga o'zida mustaqil mazmunni anglatadigan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalarga, interyerlarga qo'yish uchun mo'ljallab ishlanadi. Haykaltaroshlikning bu turida voqelik o'zining butun borlig'i bilan aks etadi. Haykaltaroshlik san'atining bu turida inson psixologiyasidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyati hamda xarakterini ochib berish imkoniyatiga ega. Xuddi shu holda u tabiatdagi mavjud hayvon va jonivorlarni ishlashda ham ularning xarakterini ko'rsata oladi.

Dastgoh haykaltaroshligining ko'rinishlaridan biri byustdir. U odam portretini gavdasi bilan aks ettiruvchi dumaloq haykallar gruppasiga kirib, o'zida bir qator obrazlarni mujassamlashtirgan haykallar kompozitsiyasi tarzida bo'ladi. Haykaltaroshlik san'atining yana bir ko'rinishi-terrakota hisoblanadi. (**terrakota**-italyancha so'z bo'lib **pishirilgan** loy ma'nosini bildiradi). Terrakota keng ma'noda loydan yasalib, xumdonda pishrilgan haykaltaroshlik asarlaridir.

Haykaltaroshlik asarlarida insonning faqat tashqi ko'rinishi, tinch turgan holati yoki harakatdagi paytini aks ettirish bilan kifoyalanmay, undagi ichki kechinmalar, his-hayajon va g'amginlik, kelajakka intilish kabi holatlar ham o'z ifodasini topadi. Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo'lgan munosabati, psixologiyasi, qalbidagi his tuyg'ulari ishonarli talqin etadi. Bunda, albatta, eng avvalo haykaltaroshning o'ta ziyrakligi, tasvirlash qoidalarini puxta egallaganligi, odam gavdasi va mimik o'zgarishlari borasida plastik anatomiya sohasidagi yuqori bilimlarga ega bo'lishini taqazo etadi. To'g'ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat haykalni ta'sirli ifodalash uchun zamin yaratadi.

## **1.2 O'zbekistonning qadimgi va bugungi haykaltaroshlik san'ati.**

O'zbek xalqi o'zining qadimiyligi yuksak madaniyati va san'ati bilan faxrlansa arziydi. Buni O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari yaqqol isbotlaydi. Xususan, Varaxsha, Afrosiyob, Xolchayon, Tuproqqa'l'a, Bolaliktepa, Ayritom, Dalvarzintepa, Ko'yqirilganqal'a, Ajinatepa, Teshikqal'a va boshqa bir qator qadimiyligi shahar, qal'a, ibodatxonalar xarobalaridan togshlgan yuksak badiiy saviyada yaratilgan devoriy rasm, haykaltaroshlik asarlari, amaliy san'at buyumlari fikrimizning dalilidir. Bu noyob topilmalarni izlab topishda L.I.Rempel, G. APugachenkova, L.I. Albaum, B.A.Bulatov, Y.G'ulomov, S.P.Tolstov kabi arxeolog va san'atshunos olimlar samarali mehnat qildilar.

**Qo'yqirilgan qal'a.** Miloddan avvalgi III—IV asrlarga oid yodgorlikdir. U Qoraqalpog'istonning To'rtko'l shahridan 22 km uzoqliqda joylashgan.

Unda shohlar, askarlar uchun alohida xonalar, g'alaba zallari bo'lgan. Ibodatxona binosi ikki qavatli bo'lib, diametri 44, 4 m. Balandligi 9,5 m ni tashkil etadi. Bino ichida 8 ta gumbazli xona bo'lib, unda devoriy rasmlar, shuningdek, zo'r mahorat bilan ishlangan sopol tobutlar, haykalchalar, devoriy naqshlar topilgan.

Saroy zallarida devoriy rasmlar bilan bir qatorda ganchdan tayyorlangan rangli relyeflar, haykallar uchraydi. G'alaba zalidaga bir relefda podsho va uning atrofidagi a'yonlar aks ettirilgan, boshqa xonadagi relyeflarda esa kiyik, anor, shuningdek, tok novdalari o'z ifodasini topgan.

**Varaxsha** Buxoro shahridan 40 km g'arbda joylashgan qal'a xarobasi.

Arxeologak qazilmalar shuni ko'rsatadiki, mazkur hududda miloddan avvalgi ming yil davomida odamlar yashagan va bu yerlarda tasviriy san'at nihoyatda rivoj topgan.

Varaxshadagi eng katta bino 9 gektarni egallagan va balanddigi 10 metrni tashkil etgan. Bu binoda hukmdorlar saroyi va ibodatxona, askarxona, aslaha xonalar bo'lган. Saroylardagi xonalar devoriy ranggasvir asarlari, haykallar va har xil rasmlar bilan bezatilgan. **Ayritom** - Termiz shahridan 18 km uzoqlikda, Amurdaryo qirg'og'ida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, u 1932 yilda aniqlangan. Bu yerda olib boryatgan qazish ishri jarayonida turli haykal va frizlar topilgan. Ularda chiltor, qo'shnay, ud, nog'ora chalib turgan ayollar va erkaklar tasvirlangan. Bu frizlar ishlanish uslubi va kompozitsiyasi jihatidan Shimoliy Hindiston haykatgaroshlshigiga juda o'xshab ketadi. Bu hol I-II asrlarda Buddha dinining O'rta Osiyoga kirib kelshi va tarqalishi bilan izohlanadi. Ular o'zining badiiyligi jihatidan nihoyatda yuqoridir.

1938 yilda Ayritomdan I-II asrlarga oid buddaviylar ibodatxonasi ham topilgan. U yerda maxsus hujralar, budda haykali ham bo'lган.

**Dalvarzintepa** Andijon viloyatining chekka qismidagi Dalvarzin qishlogada joylashgan turarjoy xarobasi hisoblanib, u 1952 yilda topilgan. Yer osti qazilganda, u yerdan bronza quyish ustaxonasi, tosh yotqizilgan ko'chalar, g'alla omborlari, turli uy jihozlari, sopol buyumlar, naqshli idishlar va odam haykallari topilgan.

Topilmalar ichida ganchdan yasalgan ayol boshi eramizning II asrida yaratilgan, deb taxmin qilinadi. Dalvarzintepada qadimda qishloq xo'jaligi, metallga ishlov berish bilan birga tasviriy va amatay san'at ham keng rivojtangan o'rta asrlar (VIII-IX asrlar) So'g'd terrakotasi tarkibi yo'nalishi jihatidan rang-barangdir. Masalan, chambarakli ikki insonning bosh qismini olaylik. Biri bo'yniga idish osib ilgan (tepa qismida suyuqlik quyiladigan teshik) boshqasi bir tomonlama relyef (soqol qo'ygan).



8-rasm. Layron. Varaxsha. VIII asr.

9-rasm. Arfa chalayotgan ayol.

Friz. Ayrитом. I-II asrlar.

Ikki bosh ham bir odam uchun ishlangan bo'lib, faqat turli kompozitsion fikrda ifodalangan. Yuzlari nimadandir hayojonga tushgan ko'rinishda tasvirlangan bosh ayniqsa hayratlidir. Orqada tasvirlangan bosh esa nihoyatda emotsiнал holatda va ko'zлari jonli tarzda tasvirlangan.

Shunday qilib O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlar san'ati turli tarixiy bosqichlarda o'zining turlicha rivojlanish va turg'unlik davrlarini boshdan kechirganligining guvohi bo'lamiz. Bir so'z bilan aytganda xalqimizning qadimiyl tsaviriyl sanati tarixida haykaltaroshlik ham alohida o'rin tutib, bugungi san'atimizning baquvvat tag zaminga ega ekanligini ko'rsatadi.


XX asrning birinchi choragida tasviviyl san'at turlarining rivoji Samarqandda va Toshkentda yashagan bir qancha rus millatiga mansub rassomlarning ijodi bilan bog'liq bo'lgan. Sababi bu davrda Rossiyada Oktyabr to'ntarishi yuz bergen va bir qancha rus rassomlari O'zbekistonga kelib o'z ijodiy faoliyatlarini boshlashgan, hamda mahalliy yoshlarga bu san'at sirlarini 'rgatishga harakat qilgan edilar.



10-rasm. Ayol boshi.Dalvarzintepa.II-asr.

Haykaltaroshlik san'ati ham keyinchalik ushbu ko'rinishda rivojlandi deyish mumkin. XX asrning ikkinchi yarmida A.Ivanov, F.Grishchenko kabi haykaltaroshlar ijodi mahalliy yoshlari-M.Musaboyev, H.Husniddinxo'jayev, J.Quttimurodov kabi ijodkorlar bilan hamohang ravishda rivojlandi.

Bu davrga o'ziga xos yuqori badiiy saviyada ishlangan haykaltaroshlik asarlaridan biri Xusniddinxo'jayev, V.Luney, M.Bulatovlarning 1970 yilda yaratilgan "Nayoiyva Jomiy" nomli monumentlaridir.



11-rasm.H.Husniddinxo'jayev va boshqalar. Navoiy va Jomiy

Navoiy va Jomiyga bag‘ishlangan ushbu asar haykaltaroshlikning monument turiga kiradi. (Monument — yirik o‘lchamta yodgorlik haykalidir). U sun’iy toshdan o‘yib ishlangan va Samarqandda o‘rnatilgan. Asarda mualliflar ustoz va shogard obrazini yaratganlar. Unda ustoz va shogird obrazi shunchaki tasvirlanibgina qolmasdan, ular orqali o‘zbek va tojik xalqlarining tarixiy do‘stligi ramziy tarzda talqin etitadi. Bunga haykaltaroshlar ikki kishi qomatining pastki qismini o‘zaro tutashib ketgandek tarzda tasvirlash orqali erishganlar.

XX asrning ikkinchi yarmida A.Ivanov, F.Grishchenko kabi haykaltaroshlar ijodi mahalliy yoshlar-M.Musaboyev, H.Husniddinxo’jayev, J. Quttimurodov kabi ijodkorlar bilan hamohang ravishda rivojlandi. XX asr O‘zbekiston haykaltaroshlik san’ati haqida gapirganda albatta bu davr mafkurasi, undagi g’oyaviy-siyosiy yo’nalishlarning san’atdagi ifoda etilishi kabi murakkab jihatlarni aytib o’tish o’rinli, albatta. Shuning ushun ham yaratilgan ko’plab haykaltaroshlik asarlari o’z mazmun-mohiyati bilan o’sha davrda hukm surgan madhiyabozlik, soxta vatanparvarlik kabi qarashlarga xizmat qilar edi.

O‘zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san’atimiz taraqqiyotiga katta imkoniyatlар eshigini ochib berdi. Bu davrda tasviriy san’atning bosqa turlari qatori haykaltaroshlik ham yanada rivojlandi. San’atning janlarida o’nlab rassom va haykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyati keng tus oldi. Bu yutuqlarning qo’lga kiritilishida shubhasiz tasviriy san’at, uning rivojlanishi uchun davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan ko’plab qaror va farmonlarining hayotga joriy etilishi bo’ldi. Ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida”gi Farmoni, (1997 yil) yurtimizda tasviriy san’atning jadal rivojlanishiga zamin yaratdi.

Mustaqillik yillarda ijod qilayotgan rassom va haykaltaroshlarimizning yutuqlari shundaki, ular birinchidan erkin ijod yo‘liga o‘tdilar, ikkinchidan milliy badiiy an’analarni davom ettirish, milyaiylik va umuminsoniy qadriyatlarning uyg’unligini ta’minlash borasida yangi, zamonaviy, ilg’or tasviriy texnologiyalarni qo’llab, muvaffaqiyatli asarlarni yaratmoqsalar.

Mustaqillik yillarda yaratilgan haykaltaroshlik san'ati asarlarida yangi g'oyaviy-mafkuraviy, o'zlikni anglash, milliy hamda tarixiy mavzular o'z aksini topdi. Vatanimizning ko'plab shag'arlarida yirik badiiy yodgorlik va haykallar o'rnatildi.

Haykaltaroshlikning mahobatli turida sermahsul ijod qilayotgan ijodkorlar orasida akademik, O'zbekiston xalq rassomi, haykaltarosh Ilhom Jabborov va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, haykaltarosh Ravshan Mirtojiyev ijodlarining keng ko'lami alohida e'tiborga molik. Ular tomonidan



12-rasm. E.Aliyev, N.Bondeladze, V.Degtyarov. Alisher Navoiy haykali.

Toshkent. (1991 y.)

yaratilgan yodgorliklarni hozirda mamlakatimizning aksariyat viloyat va shaharlarida uchratish mimkin. Bunga misol tariqasida poytaxtimiz Toshkentda o'rnatilgan bobomiz sohibqiron "A.Temuring otliq haykali" (I.Jabborov, K.Jabborov), "Motamsoro Ona haykali" (I.Jabborov), "Ezgulik va Mustaqillik monumenti" (I.Jabborov), Shahrisabz va Samarqandda o'rnatilgan "A.Temur" (I.Jabborov), Farg'onada "Ahmad al Farg'oniy" (R.Mirtojiyev), Xorazmda "Jaloliddin Manguberdi" (R.Mirtojiyev), va boshqalarini misol keltirishimiz

mumkin. Shuningdek, R.Mirtojiyev ijodiga mansub yana bir monumental haykaltirishik asari Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyi munosabati bilan shahar markazida o'rnatilgan "El-yurt tayanchi" monumentidair.

Bundan tashqari Toshkentdag'i "Alisher Navoiy haykali" (1991yil.E.Aliyev, N.Bondaledze, V.Dekterev), Termiz shahridagi "Alpomish haykali" (Haykaltaroshlar guruhi) va boshqa ko'plab monumental asarlar ham mustaqillik yillaridagi haykaltaroshlik san'ati rivojining yaqqol dalilidir.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy obrazini yaratish yurtimizning ko'plab haykaltaroshlarini doimo qizig'tirib kelgan va bugungi kunda ham uning obraziga murojaat etish haykaltaroshlik san'atida to'xtagani yo'q.

2001 yilda Navoiy shahri markazida ulug' shoirning 560 yilligi munosabati bilan A.Rahmatullayev va P.Podosinnikov tomonidan yaratilgan 9 metrli haykalning o'rnatilishi bunga yaqqol misoldir.

Tasviriy san'atning haykaltaroshlik turi haqida gap borganda, uning naqadar mashaqqatli, nechog'li mushkul ish ekanligini aytib o'tish o'rini. Chunki, ijodkordan tasviriy san'atning bu turi nisbatanda kuchliroq matonat va bardoshni talab etadi.

1993 yil avgustida mamlakatimiz poytaxtining markazida buyuk davlat arbobi, yengilmas sarkarda Muhammad Tarag'ay Bahodir Amir Temurning mahobatlari otliq haykali o'rnatildi. Realistik uslubda ishlangan mazkur monumentda kuchli plastik harakatlar ko'zga tashlanadi. Amir Temurning jo'shqin ichki hissiyoti otning bir oz badiiylashtirilgan ko'rinishi bilan birlashib, uning kompozitsion tuzilishini mukammallashtirdi. Haykal shaklan betakror va mayda bezakli unsurlar bilan boyitilgan. Temurning bu otliq haykali ikki metli tagkursiga o'rnatilgan bo'lib, unga "Kuch-adolatdadir" hikmati bitilgan. Yodgorlik ochilishiga bag'ishlangan marosimda nutq so'zlagan Prezident Islom Karimov bunday degan edi: «Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yog' bilan o'chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini o'chirish, uni qaramlikka, tobeklikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek

xalqi o'z ajodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi».

Amir Temur haykalining qad rostlashi o'zbek xalqining g'ururiga g'urur qo'shdi, uning jahon ahli oldidagi ma'naviy mavq'eyini yanada yuksaltirdi, o'tmishi kabi kelajagi ham buyuk millat ekanini namoyon etdi.

Dastgog'li haykaltaroshlik san'atida zamonaviy va milliy an'analar o'zaro uyg'unlashtirildi. Bu davr dastgohli haykaltaroshlik san'atining o'ziga xosligining yana bir ko'rinish, realizm an'analarini amaldan surib chiqarilishi va badiiy ifodaviylikning etakchiligidagi bo'ldi. Akademizm uslubiyoti faqat badiiy ta'limgarayonidagina saqlanib qoldi.

Shunday qilib istiqlol davri haykaltaroshlikning yaqqol namoyondalaridan I.Jabborov, K.Jabborov, E. Aliev, A. Rahmatullaev, N. Bondeladze, V. Degtyarov, R. Mirtojiev, P. Podosinnikov, A.Ryabtsev, P.Axmedzyanov, Sh.Usmonov, Q.Norxo'rozov, D. Ro'ziboev, T. Tojixo'jaev, J. Quttimurodov, U. Mardiev kabi bir qator ijodkorlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu davr haykaltaroshligida milliy mafkuraga asoslangan mavzular va qisman yangi badiiy shakllar kashf etilganligini ham e'trof etish lozim.



13-rasm. Amir Temur haykali. Samarqand. 1996yil. Haykaltaroshlar

Ilhom Jabborov va Komol Jabborovlar.



14-rasm. "El-yurt tayanchi" haykali. Qarshi. 2006 yil. Haykaltarosh  
Ravshan Mirtojiyev.

## **II BOB. Kasb-hunar kollejlari tasviri san'at darslarida haykaltaroshlik mashg'ulotlarining o'qitilishi.**

### **2.1 Kasb hunar kollejlari tasviri san'at mashg'ulotlarining mazmuni va DTS.**

Talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish muammosi ta'limgardagi tarbiya jarayonida samarali usul va vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

«Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, awalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamsoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan oqilona amalga oshirish lozim»<sup>1</sup>, deya ta'kidlagan edi prezidentimiz I. Karimov.

Tasviri san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviri san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Shuning uchun ham yoshlarni ma'naviy barkamol, estetik jihatdan yutuk insonlar qilib voyaga yetkazishda tasviri san'atning benihoya katta imkoniyatlarga ega ekanligi sir emas.

Haqiqatan ham, talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish ta'limgardagi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki o'rta maxsus kasb-hunar kolleji barcha o'quv fanlarining vazifasi sanaladi. Bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng ko'lamma olib borilib, ta'limgardagi tarbiya jarayo-nining barcha jabhalarida asosiy o'rinni egallashi lozim. Xususan, tasviri san'atni o'qitilishida bu vazifa talabalarda Vatan tuyg'usini shakllantirish — Ona Vatanga, uning tabiatiga mehr-muhabbat uyg'otish; o'lkamiz boyliklarini asrab-avaylab, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatni tarkib toptirish, ularning ekologik madaniyatni yuksaltirishdan iborat.

Pedagogika kollejlari ta'limgardagi oluvchi talabalarning tasviri san'atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini,

---

<sup>1</sup> I.Karimov. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 1998 y.

badiiy didini, rang sezishi va tasawurini rivojlantiradi, buyuk rassomlar yaratgan asarlar go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni idrok etishga olib keladi.

Tasviriy san'at nazariy asoslari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, ayniqsa, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, qurish-yashash, haykaltaroshlikdan malaka hosil qilish, manzarali, mavzuli kompozitsiya yaratish, odam shaklini turli harakatlar va kiyimlarda tasvirlash usullari, haykaltaroshlik, dizayn san'ati, tasviriy san'at tarixi haqidagi ko'nikma va ma'lumotga ega bo'lish tasviriy san'at o'qituvchisi faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

2002 yil 16 oktyabrdan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat standarlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 400-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya ishlari tayyorlov yo'nalishi bo'yicha tarmoq ta'lim standarti o'quv dasturlarida tasviriy san'atdan "Qalamtasvir", "Rangtasvir", "Kompozitsiya", "Amaliy va dizayn san'ati", "Tasviriy ssan't o'qitsh metodikasi", "San'at tarixi" kabi yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilarga bilim va malakalar berish ko'zda tutilgan.

Kasb –hunar kollejlarida DTS Tasviriy san'atning yunalishi buyicha kichik mutaxassislari tayyorlashning zarur va yetarli shartlari va ularning mazmuni, maqsadlarini aniqlaydi. Ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamalari hajmi va standart talablari nazoratini belgilab beradi.

Standart talablari ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi o'quv mashgulotini attestatsiyadan o'tkazishda asosiy mezon hisoblanadi. Unda "Qalamtasvir" uchun-78 soat, "Rangtasvir" uchun-78 soat, "Kompozitsiya" uchun- 78 soat, "Amaliy va dizayn san'ati" uchun-64 soat, "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" uchun-55 soat, "San'at tarixi" uchun-30 soat vaqt ajratilgan.

"San'at tarixi" kursi ham yosh avlodni san'atshunoslik sohasidagi bilim va malakalarini oshorishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yunalish bo'yicha jami 30 soat ajratilgan bo'lib , asosan nazariy bilimlar beruvchi mashg'ulotlardan iboratdir.

Tasviriy san'at tarixi fanning asosiy maqsadi O'zbek va chet el tasviriy san'ati asarlari hamda nodir yodgorliklari bilan tanishtirish, rassomlar asarlarini

mushohada qilish, ularni mustaqil tahlil qilish, go'zallikdan zavqlanish, san'at asarlarini taqqoslay olish kabilarni o'rgatish va yoshlarning san'atshunoslik madaniyatini o'stirishdir.

Unda san'at tushunchasi, tasviriy san't tur va janrlari, Qadimgi dunyo san'ati, Antik davr san'ati, Uyg'onish davri san'ati, Qadimgi rus san'ati, Me'morchilik san'ati, Temur va temuriylar san'ati, Ch. Axmarov, I.Ikromov, A. Abdullayev ijodi, M. Nabiiev, M. Saidov, G' Abduraxmonov ijodi, D. Ro'ziboyev, J. Quttimurodov, ijodi, J. Umarbekov, B. Jalolov ijodi, A. Mirzayev, T. Sa'dullayev va boshqalar kabi mazular alohida o'rinni olgan. Ko'rinib turganidek, pedagogik yonalishdagi kasb-hunar kollejlarida o'tiladigan tasviriy san'at darslarida "San'at tarixi" kursiga ham alohida o'rinni beriladi. Bu shubhasiz o'uchi yoshlarning san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqamasining 1999 yil 16 avgust qaroriga ko'ra 1999-2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim mакtablarida barcha fanlar qatori tasviriy san'at ta'limi bo'yicha ham davlat standartlari joriy etildi. **Davlat ta'lim standartlarini** ishlab chiqilishi avvalo O'zbekistonning mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog'lanadi.

Hozirda har bir fan bo'yicha, shu qatori badiiy-estetik turkumdag'i fanlardan davlat ta'lim standartlarining yaratilishi, uni qukumat tomonidan tasdiklanishi katta ilmiy va amaliy aqamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Mazkur standartlar O'zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo'lib, u respublikamiz mакtablarida ta'limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etsh hamda uni jaqon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi.

Standart davlat tomonidan qo'yilgan talablarni to'gri va benuqson bajarish uchun imkon berishi bilan bir qatorda amaliyotda qo'llanib kelayotgan, dastur, darslik va metodik qo'llanmalardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etsh hamda uni o'qiti-lishini talablar darajasini tashkil etish imkonini ham beradi.

Davlat ta'lim stavdartida tasviriy san'at ta'limi mazmuniga bo'lgan majburiy minimum talablar bayon etilgan. O'qituvchi uni bajarishi shart. Lekin o'qituvchi shu bilan chegaralanib qolmasdan uni chuqurlapggirishga qarakat qilinsh lozim.

Biroqta'lim mazmunini yuqori darajaga olib chiqaman deb bolalarga keragidan ortiq talablar qo'yish, ularni qiynash ham mumkin emas.

## **2.2.Kasb-hunar kollejlarida hykaltaroshlikkompozitsiyasi mashg'ulotlari va uni olib borish**

Maktabning to'rtinchisinfalarini bitiruvchi o'quvchilar haykaltaroshlik bo'yicha quyidagi malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari lozim:

loy va plastilin, tabiiy, badiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlay olish; Haykal ishlaganda ulardagi obraz va narsalarni o'zaro bog'liq hoddha tasvirlash; loydan ishlangan o'yinchoqlarni guash bo'yoq bilan bo'yay olish; Etginchi sinfni bitiruvchi ukuvchilar kuyidagidarni bilish-lari lozim:

- haykaltaroshlarning asoiy ish qurolari va ishlataidigan materiallarini — dastgox, , stek, loy, tosh, yog'och, v.b. bilishi;
- haykaltaroshlikda shllatiladigan ayrim atamalarni-dastgohli haykaltaroshik, monumental haykaltaroshlik, plastik haykaltaroshlik, istirohat-bog' haykaltaroshligi, real haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, relef, gorelef, barelef;
- O'zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi rangtasvir va haykaltaropchik namunalarini;
- rangtasvir, haykaltaroshlikda, grafikada ijod qiluvchi 50-60 rassom, haykaltarosh, grafiklarning ismi va familiyasi hamda ularning asarlarini;
- haykaltaroshlikda odam, hayvon va narsalarning tuzilishi, shakli va ularning xarakterli xususiyatlari, o'lchovlari va o'lchov nisbatlarini ko'ra olsh;
- haykallar ishlashda hayvon va odam shakllarining xarakgerli xususiyatlarini tasvirlay olish;
- loy yoki plastilin bilan odam va hayvonlarni shakl, o'lchov va o'lchov nisbatlarini hisobga olgan holda haykal ishslash;
- odam va xayvon haykallarini harakatda tasvirliy olish.

Yuqorida qayd qilinganidek, naturaga qarab tasvirlash, naturaga qarab haykal ishslashni ham nazarda tutiladi.

Bu mashg'ulotlarning yana o'ziga xos jihatlaridan biri bolalarda plastilin, loy, stek bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, loy (plastilinni) parchalarini o'zaro qo'shish

orgali haykal ishlash, shuningdek, birligina yirik loy bo'lagidan ortiqcha joylarini olib tashlash orqali haykal hosil qilish metodikasini to'g'ri o'zlashtarib olishga qaratilganligidir. O'quvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarishda naturani barchaga to'liq ko'rinishiga erishish muhimdir. Shuningdek, naturani bolalar ishtirokida savol-javob orqali tahlil qilish, u haqda to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

### **Haykaltaroshlik kompozitsiyasi**

Bu mashgulotlarda o'quvchilar tasviriy san'at mashg'ulotlarining boshqa turlarida o'zlarining egallagan balim malakalariga tayanadilr .

Haykaltaroshlik mashgulotlarida o'quvchilar loy va plastilinni dumaloklash,bosib yapaloqlash siqimlab chuzish, stek bilan ishlash usullarini uzlashtiradilar .

Haykaltaroshlik mashgulotlarida ikki xil ish uslubi mavjud bulib birinchisi yaxlit ikkinchisi alohida loy yoki plastilin bo'laklari bo'lib, bir-biriga qo'shish orqali haykal ishlashdir .

Haykaltaroshlik kompoziiyasi mashg'ulotlarida odam, hayvon, qushlarning alohida haykallari, sport, hayvonot olami mavzularida, xalq ertaklari asosida tasviriy ijodiy ishlar bajariladi. Dekorativ haykaltaroshlik o'quvchmlarda turli dekorativ bezakli rel'eclar va o'yinchoq haykallar ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qiladi. Haykaltaroshlyus mashg'ulotlarida ikki xil ish uslubi mavjud bo'lib, ularning birinchisi alohida-alohida loy yokl plastilin bo'laklarini bir-biriga yopishtirish orqali haykal ishlash bo'lsa, ikkinchisi yaxlit loy boi'lagiga stek bilan ishlov berish orqali haykal ishlashdir. Bularni bolalar yakka yoki guruh bo'lib bajaradilar. Kompozitsiyalardagi obrazlar soniga qarab, guruhdagi bolalar soni kam yoki ko'p bo'lishi mumkin.

**Loy va plastilin bilan ishlash.** Buyumning konstruktiv xususiyatlari, nisbatlarining xarakterli shakllarini qurish o'quvchilarni ko'z bilan chamlash, qo'llar harakatini o'stirish, vazifani izchillikda bajarish ko'nikmasini tarbiyalashga, materiallar xususiyati to'g'risidagi bilimni egallahga ko'maklashadi. Loy va plastilin haykaltaroshlik materiallari hisoblanadi.

**Loy** — (gil, shamot) cho'kindi tog' jinsi. Suv bilan aralashtirilganda yumshoq va egiluvchan (qayishqoq)lik xususiyati hosil bo'ladi va turli shaklga kiradi, quritilganda shakli saqlanadi. Buyum yashashda ko'proq kulrang loy qo'llaniladi. Loy quyidagicha tayyorlanadi: quritilgan kesak mayda bo'laklarga bo'linadi va plastmassa idishga qatlam bilan joylashtiriladi, har bir qatlam suv bilan solinadi. Bir kundan keyin ortiqcha suv olinadi va qolgan loy xamirsimon holatga kelguncha aralashtiriladi, agarda qo'lga yopishmassa, loy ishlatishga yaroqli holga kelgan bo'ladi. Tayyorlangan loy nam latta bilan yopilib salqin joyda saqlanadi. Ochiq havoda quritilgan loydan yasalgan modelni guash bo'yo-g'ida xohlagan rangda bo'yash mumkin. Qotirilgan bo'lsa ham loydan yasalgan buyum mo'rt va tez sinadigan, nozik bo'ladi. Shuning uchun ular boshqa ancha mustahkam bo'lgan materialga ko'chiriladi yoki 900°C haroratlari issiqlikda maxsus pechda kuydiriladi.

**Plastilin** — loy, mum, yog' va boshqa qo'shimchalardan tay- „, yorlangan sun'iy plastik modda. U uzoq qurimaydigan, egiluvchan va yumshoq material. Bir xil rangda yoki rangli buyumlarni yashashga ishlatish uchun har doim tayyor material. Yasalgan buyumlarning shakli buzilmaydi va yorilmaydi, faqat ma'lum darajadagi issiqlikda plastilin yumshaydi va eriydi, sovuqda esa qattiqlashadi.

**Dumaloqlash** — silliq sharsimon yuzali shaklga keltirish uchun shaklga ega bo'limgan plastik materialning bo'lagiga ishlov be-rishning oddiy usuli. Bo'lakcha kaft o'rtasiga olinib, qo'llar yengil siqilib, aylanma harakat bilan ishlov beriladi. Tuxumsimon buyum va silindrli ustunlarni hosil qilish uchun yoyiltirish usuli qo'llaniladi. Qo'l kafti o'rtasiga joylashtirilgan bo'lakcha qo'lning to'g'ri chiziqli harakati bilan yoyilganda cho'zilib, silindr shaklini hosil qiladi.

**Yapaloqlash** — yapaloq shaklni hosil qilishda bo'lakni tekis ezg'ilash usuli. Soqqa shakli kaftlar yoki barmoqlar bilan ezg'i-lash orqali disk, yopilgan non shakliga keltiriladi. Kichik chuqurliklar va egik joylar ezg'ilash (bosish), stek yoki barmoqlar orqali amalga oshiriladi. Mayda bo'laklarni yopishtirishda chimchilash usuli qo'llaniladi. Bu usul barmoqlarni kuchli siqish orqali amalga oshiriladi.

Plastik materialning bir boiagidan bir chimdimi ushlab olinib, yengil qisib tortilsa, buyumning qaysidir bir qismi cho'zilgan materialdan shakllanadi. Bu usul **cho'zish, uzaytirish** usuli deyiladi.

Yassi va tekis yuzalarni tasvirlashda barmoq uchlari, stek va latta bilan bajariladigan silliqlash usulidan foydalaniladi. Tekis-likka perpendikulyar qo'yilgan kurakcha,\_barmoqlar va steklarning uzunasi bo'yicha qilinayotgan harakat barcha notekislikni tozalaydi va silliqlab yuboradi. Bu holatni agarda buyum loydan ishlanayotgan bois, ho'llangan latta bilan ham bajarish mumkin. Silliqlash usuli bir tekislikdan ikkinchisiga ravon va silliq o'tish joylarini hosil qilishda, turli qismlami qo'shishda va aylanma joylarda qo'llaniladi.

### **2.3 Haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlarini olib borishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.**

«Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» o'qituvchining o'quvchilarga badiiy ta'lif berish usullarini puxta bilib olish darajasiga erishish va o'zlashtirish samarasining oshirilishini nazarda tutadi.

«Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» pedagogikada ilmiy fan sifatida tajribadagi sinalgan ijobiy ishlarning nazariyasini umumlashtirib, o'quv va pedagogik amaliyotda samarali natijalarga ega bo'lgan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, peda-gogika, ruhshunoslik, san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslangan boiib, tasviriy san'atni o'rgatishning qonun-qoidalarini ta'riflab beradi. Shu bilan birgalikda keljak avlodning tarbiyalashida yangidan-yangi zamonaviy metodlarini aniqlab beradi.

Pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik tex-nologiyalarning tahlili, umumiylashtirilishi kollejlarida tasviny san'atni o'qitish jarayoniga qo'yilgan talablar, maqsad va vazifalarni amalga oshirishda didaktik o'yin, modulli ta'lif, hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish lozimligini ko'rsatadi. Texnologiya so'zi yunoncha "Texnos" - hunar va fan so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "hunar fani" ma'nosini bildiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maqsadi qisqa vaqt davomida o'quvchilaming imkoniyatlarini hisobga olgan holda keng va chuqur bilim va malakalar berishdir.

Pedagogik texnologiyaning muhim hususiyatlaridan biri bu ta'lim oluvchilarni o'qitish emas, ularni bilim va malakalarini mustaqil egallashlariga qaratishdir. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchi-larni mustaqil ishlariga rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning samarasi, asosan, o'quvchilarni tegishli o'quv-metodik majmualar bilan qurollantirishga qaratilgan bo'ladi.

**Metodika, metod** — aslida bilish, o'rganish, tadqiqot yo'li, ijodiy usul, pedagogik usui, ma'noni anglatadi. Pedagogikada o'qitish metodlari deganda o'quvchilariga badiiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida bilim, mahorat va kasbiy malakalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda dunyoqarashini tarkib topishda o'qituvchilarning qo'llagan har xil usullari tushuniladi.

Metodika ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning o'quvchilar bilan ishlash usullarining mazmumva xususiyatlarini o'rganib chiqib, tasviriy san'atni o'qitilishining xilma-xil metodlarini qo'llashga o'rgatadi:

Zamonaviy metodlardan interaktiv, pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalar, tabaqlashtirilib o'qitish, modulli o'qitish, didaktik o'yinli o'qitish, muammoli o'qitishni o'quv jarayonida qo'llanilishi kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarga faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zлari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zлari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchini rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiravchilik vazifasini ham bajaradi.

**Interaktiv metodlar** — bu jamoa bo'lib fikr yuritish, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu

metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshirilishi.

Innovatsion texnologiya (ingl. Innovation) — yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiya — pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda, asosan, interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Bunday hamkorlik jarayonining o'ziga xos xususiyatlari qu-yidagilardir:

- o'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod bilan izlanishga majbur etishi;
- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qi-ziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshishini rivojlantirilishi;
- pedagog va o'quvchi-talabaning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarar bo'lgan TTV, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi -bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kutilgan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagen texnologiyalariga bog'liq bo'ladi, ya'ni o'qitish jarayonida, ko'zlangan maqsaddan samarah natijaga erishishida qo'llaniladigan har bir texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtaqidagi hamkorlik faoliyati, ijobiy natijasi, mustaqil fikrashi, ijodiy ishlashi, izlanishi, tahlili va xulosa chiqarishni tash-kil etishlari, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va samarai natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Tasviriy san'at o'qituvchisi har bir darsni oldindan tasawur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib oiishi kerak. Bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib oiishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har

bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning -xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzi-ladi. Bunday texnologik xaritani tuzish uchun o'qituvchi badiiy pe-dagogika, san'at psixologiyasi, xususiy metodika, pedagogik va ax-borol texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, metodlar va usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi awaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maqsadi qisqa vaqt davomida o'quvchilaming imkoniyatlarini hisobga olgan holda keng va chuqr bilim va malakalar berishdir.

Pedagogik texnologiyaning muhim hususiyatlaridan biri bu ta'lim oluvchilarni o'qitish emas, ularni bilim va malakalarini mustaqil egallashlariga qaratishdir. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchi-larni mustaqil ishlariga rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning samarasi, asosan, o'quvchilarni tegishli o'quv-metodik majmualar bilan qurollantirishga qaratilgan bo'ladi.

**Didaktik o'yin texnologiyalari.** Tasviriy san'at darslarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishda imkon beradi. Ma'lumki, o'quvchilaming bilish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'un-lashgan darslar didaktik o'yinli darslar deyiladi.

**Didaktik o'yinli darslaming sujetli-roIII, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar va o'yin mashqlar** kabi turlari bor.

**Modulli ta'lim texnologiyasi.** Modulli ta'lim texnologiyalaridan tasviriy san'atni o'qitilishida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Modulli ta'lim texnolo-giyasining o'ziga xos xususiyati darsda o'rganiladigan mavzuni mantiqiy tugallangan modullarga ajratish va u yuzasidan modul dasturini tuzishidan iborat. Modul dasturi o'quvchining mazkur darsda o'quv bilish faoliyatini boshqarish vositasi bo'lib, unda modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar va topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar beriladi.

**Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi.** Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruh bo'lib o'qitish, kichik guruhlarda o'qitish, «arra» yoki «zigzag» (E. Aronson), «birgalikda o'qiymiz» metodlaridan foydalanish imkoniyati mavjud:

1. Guruh bo'lib o'qitish (R. Slavin) metodidan foydalanilganda o'quvchilar teng sonli ikkita guruhga ajratiladi. Har ikala guruhda bir xil topshiriqni bajaradi. Guruhda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga e'tiborini qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R. Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo'yicha ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilarning tom ma'nodagi hamkorligi, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, ularda bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi paydo bo'lishi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi bilan bog'iq. Mazkur texnologiyada o'quvchilaming bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirish natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi guruhga foya keltirishini tushunib, mas'uliyatni his qilib, bilimlarni puxta o'zlashtirish uchun ko'proq izlanishga intiladi.

**Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining ijodiy izlanish metodi.** Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi. Bu metod 1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh. Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu me-totda ko'proq o'quvchilaming mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratilgan.

O'quvchilar alohida individual yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqshnlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiyl topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Kichik

guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zo-lari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilar o'rtasida o'z ijodiy izlanish natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlар o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining ham-korlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi yakuniy sanaladi. Hamkorlikda ishslash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir o'quvchining, muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarning, umuman sinf jamoasini jipslashti-rishga, awal o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarни yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarni o'zlashtirilishiga zamin tayyorlaydi.

### **Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

**MAVZU: “ODAM BUYUSTINI ISHLASH” MAVZUSIDA  
HAYKALTAROSHLIK KOMPOZITSIYASINI ISHLASH**

<i>O'quvchilar soni:</i> 22	Vaqti: 4 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Haykaltaroshlik kompozitsiyasi yaratish, loy va plastilin bilan ishslash malakalarini o'stirish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Haykaltaroshlik kompozitsiyalari haqida tushuncha berish.</li> <li>“ Odam buyustini ishslash” mavzusi bo'yicha eskizlar ishslash.</li> <li>Haykaltaroshlik kompozitsiyasi uchun taglik va karkaslarni tayyorlash.</li> <li>Loy yoki plastilinda ishslash bosqichlari.</li> </ol>
Mashqulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilim va malakalarilarni chuqurlashtirishni ta'minlash.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	O'quv faoliyati natijalari.
<ul style="list-style-type: none"> <li>mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratish;</li> <li>mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam berish;</li> </ul>	<p>amaliy mashqulot rejalarini bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi; amaliy mashgulot mavzusini bo'yicha o'tilgan nazariy ma'lumotlarni esga oladi, tushuncha va ko'nikmalarni mustahkamlaydi;</p>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• mustaqil kompozitsiyalar ishlashga o'rgatish;</li> <li>• guruhda hamda individual ishlashni tashkil qilish;</li> <li>• haykaltaroshlik kompozitsiyaslar haqida tushunchalarni mustaxkamlashga yordam berish;</li> <li>• loy va plastilin bilan ishslash malakalarini chuqurlashtirish ;</li> <li>• berilgan “Odam buyustini ishlash ”nomli kompozitsiyani plastilinda tasvirlash ko'nikmalariga ega bo'lishni shakllantirish;</li> </ul>	<p>mustaqil kompozitsiyalar ishlashni o'rganadi: amaliy vazifani individual tarzda bajarishni o'rganadi.;</p> <p>haykaltaroshlik kompozitsiyaslar haqida tushunchalarni mustaxkamlaydi;</p> <p>loy va plastilin bilan ishslash ko'nikmalarini chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi; berilgan “Odam buyustini ishlash” nomli kompozitsiyani plastilinda tasvirlash ko'nikmalariga ega bo'ladi;</p>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar va amaliy ishlash usuli.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ushbu mavzuga mos holda ishlangan kompozitsiyalar va ularning reproduksiyalari, haykaltaroshlik uchum moslangan tagliklarar, loy va plastilinlar, suv, stek, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>	Individual va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Amaliy mashg'ulot reyting tizimi asosida baholash.

### **Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi. ( 2 soat.)**

Mashg'ulot mavzusi: **“ODAM BUYUSTINI ISHLASH” MAVZUSIDA HAYKALTAROSHLIK KOMPOZITSIYASINI ISHLASH**

<i>Ish jarayonlari vaqtি</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>O'quvchi</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. Amaliy mashqulot mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi ishlashning nazariy va amaliy ahamiyati haqida gapiradi. Ta'lim jarayoni guruhda va «individual ishslash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi (.11-ilova).	Tinglaydilar, qaraydilar. Elektron doskadagi slaydlarga qaraydilar.
	1.2. <b>“Aqliy hujum” metodidan foydalanilgan holda o'quvchilarga,</b>	O'z fikrlarini erkin bildiradilar.

	<p>“haykaltaroshlik kompozitsiyasi nima ma’noni anglatadi?” degan savol bilan murojaat qiladi. (1.2-ilova)</p>	
	<p>1.3. O’quvchilarning fikrini umumlashtirib, kerakli joylarini to’ldiradi, ularni alohida –alohida joylarda tartib bilan joylashishlarini tashkil qiladi.</p>	alohida-alohida joylarga bo’linib o’tiradilar.
	<p>1.4. Mavzu bo’yicha amaliy mashg’ulot vazifasini e’lon qiladi.</p>	Tinglaydilar
osqich. Asosiy ( 60 minut)	<p>2.1. Dastlabki vazifa-1. Haykaltaroshlik kompozitsiyalari haqida tushuncha berish.</p> <p>2. “Odam buyustini ishslash” mavzusi bo’yicha eskizlar ishslash.</p> <p>Guruxga topshiriqni bajarishi uchun ko’rgazmali-amaliy tarzda tushuncha beradi: Dastlab, qog’oz va doskada grafit qalamlar va bo’r bilan odam bosh qismining holatlarini ko’rsatuvchi qalamchizgilarni ishlab ko’rsatadi. Kompozitsiya ishslashning turli variantlarini chizib ko’rsatadi. Tajribali rassom va haykaltaroshlarning huddi shu mavzudagi amaliy ishlari reproduktsiyalarini slaydlar orqali namoyish qiladi. (2.1-ilova)</p> <p>Qo’shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini berilgan vazifani tug’ri bajarishga va kutiladigan natijaga jalb qiladi.</p> <p>Keyingi vazifa- Loy yoki plastilinda ishslash bosqichlari.</p> <p>2.2. Guruhdagi har bir talaba individual tarzda vazifani bajarishlarini nazorat qiladi.</p> <p>2.4., Har bir o’quvchi o’z haykaltaroshlik ishi taqdimotini o’tkazishida yordam beradi. Xulosalar chiqarishga ko’mak beradi</p>	<p>Faol qatnashadilar, e’tibor qaratadilar. Mustaqil bajeradilar. Elektron doskadagi slaydlarga qaraydilar. Eskizlar ustida shlash.</p> <p>Maxsus taxtachaga kompozitsiyani to’g’ri joylashtirish, va nisbatlarni aniqlash vazifasini bajaradilar. Bajargan amaliy ishlar taqdimoti o’tkazadi, baholaydi.</p>
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	<p>3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol o’quvchilarni baholash mezoni orqali rag’batlantiradi.</p> <p>3.2. Uyda bajarish uchun topshiriq beradi: “taniqli shaxslar buyustiniishlash uchun qalamchizgilar bajarish”</p>	<p>Eshitadi. Aniqlaydi.</p> <p>Eshitadilar, yozib oladilar</p>

**«Aqliy hujum»ning asosiy qoidalari:**

- olg'a surilgan g'oyalalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo echimidan uzoq g'oyalalar ham go'llab-ruvvatlanadi;
- barcha g'oyalalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- «hujum»ni o'tkazish vavaqtি aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak

**Mustaqil (individual) ishslash qoidasi**

1. O'quvchi ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmos'i lozim.
2. Guruhga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. O'quvchi oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Amaliy ishslash chogida talaba q'rnidan turishi (yoki boshkalarga halakit bermagan holda ishini uzoqroqdan kuzatishi, yonidagi guruxdoshi yoki o'qituvchidan maslaxat so'rushi) mumkin. U fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnomaga berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham izlanishda va muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

1-slayd.

**2.4.Oquvchilarini buyust kompozitsiyasini ishslashga o'rgatish.**

Tasviriy san'atdagi qonun-qoidalarini puxta egallagan o'quvchi amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. Rus rassomi va pedagogi D. N. Kardovskiy qayd etib o'tganidek: «San'atni o'rganayotganlar tasvirlashning yo'llari va usullari, ya'ni

narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'y sunishga majburdirlar»<sup>2</sup>.

Ba'zi bir o'lchovlar va nisbatlarni aniqlash uchun sirkul ishlatish mumkin, lekin hamma vaqt ham undan foydalanaverish mumkin emas. Ko'zning, sezish qobiliyatini rivojlantirish va ularga ko'proq ishonish kerak. Bu borada o'rta asr rassomi va tasviriy san'at sohasidagi nazariyotchisi I.Sandrat shunday degan edi: «Shuni doim yodda tutish lozimki, keragidan ortiq o'lchab tasvirlash rassomga foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishi mumkin. Ko'z bilan chamalab chizish va shu asosda ko'plab mashqlar bajarishi uning muvaffaqiyatini belgilaydi.»

Kasb-hunar kollejlarida haykaltaroshlik bo'yicha o'quv mashg'ulotlari dasturida mavzu asosida turli kompozitsiyalarni bajarish ko'zda tutilgan. Haykaltaroshlik kompozitsiyalari ishlashda o'quvchilar nafaqat amaliy ko'nikmalar o'zlashtiradilar, balki fazoviy hajmini tasvirlash qonuniyatları bilan ham tanishib boradilar. Ammo bu xildagi kompozitsiyalar ishlash o'quvchidan katta mahorat va ko'nikmalarni talab qiladi. Ishga qiziqib berilganda o'quvchilar pedagog rahbarligida deyarli bir xil natijalarga erishadilar. Ya'ni bu o'quv jarayonining ancha qiyin bosqichidir. Sababi- ushbu vazifani bajarish to'laligicha ijodiy jarayon hisoblanadi.

Ko'p jihatdan bunda o'quvchining individualligi uning ijodiy fikrlashi, konstruktsiya va haykaltaroshlik tilining o'ziga xosligini anglab etishi bilan aniqlanadi.

Haykaltaroshlik kompozitsiyasi ishlash ijodiy jarayon ekanligini o'quvchilarning bir mavzu bo'yicha bir necha va turli xildagi bajargan ishlari yaqqol ko'rsatib beradi, ular bir – biridan umuman farq qiladi.


Bu yerda har bir o'quvchining o'z individualligi, shaklni ko'rish va tushunishi, konstruktsiyani qay darajada tuzishi ko'rinishi turadi. Masalani har biri o'zicha hal qiladi: bir o'quvchi o'xshashlikni tashqi ko'rinishini berilib ko'rsatishga harakat qilsa, boshqalari uning psixologik holatini chuqurroq aks

<sup>2</sup>. Д.Н.Кардовский об искусстве. Воспоминания, статьи, письма М., 1960, с. 128

ettiradilar, uchinchilari esa tasvirning konstruktiv xarakteristikalariga e'tiborni qaratadilar.

Ammo baribir birinchi bor yasashga kirishgan o'quvchi ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi.

**Birinchi bosqich:** Odam bosh shakllarning individual o'ziga xosligini iloji boricha haqiqiy va aniqroq ko'rsatib berish uchun uning xarakateri va ko'rinishi, o'ziga xosligini( anatomik tuzilishlarini o'rganib olish maqsadida ulardan har tomonidan qalamchizgilar bajarib olinadi. buyustni yasashda ushbu namunalardan va uning eng xarakterlilaridan foydalilanadi. Chizgilarni yon, old va orqa tomonlaridan bajarish kerak. Ular keyinchalik haykalchalarning balandligi uzunligi va kengliklarini aniqlashda yordamchi material bo'lib xizmat qiladi.



15-rasm.Birinchi bosqich.Karkas tayyorlash.

Qalamchizgilar bajarishda ular tanasining tashqi shaklini( anatomik tuzilishlarining bog'liqligini diqqat bilan o'rganib chiqish tavsiya etiladi.


Shunday qilib berilgan mavzu buyicha bir necha variantlarda qog'ozda eskizlar bajariladi(qalamda). Eskiz bajarilgach, o'qituvchining rahbarligida kompozichiya uchun ish asos yasashdan boshlanadi. Etyudning kattaligi va kompozitsiyasiga qarab asoslar turlicha bo'ladi. Odam boshini tasvirlash uchun dastlab taglik olinib, karkaslar yasaladi.. Karkas balandlikdagi metall tayoqcha bo'lib, uning uchiga yumshoq simlar bilan loyni ushlab qolish uchun yog'och bo'lakchalari mahkamlanadi.

Ba'zida esa mustahkamlikni ta'minlash uchun qo'shimcha tayoq mahkamlanadi. Ba'zan karkas yog'ochdan ham bo'lishi mumkin.

**Ikkinchibosqich:** Ishni boshlashdan avval hamma narsani tayyorlab olish, ish sharoitini yaratish kerak. Ko'pincha o'quvchilar karkasga loyni tartibsiz, to'g'ri kelgancha yopishtirib tashlaydilarki, shundan so'ng karkasni ham, modelni ham ilg'ab bo'lmaydi. Bu noto'g'ri, loyni qo'lga olishdan oldin naturaning xarakteri haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, uni diqqat bilan o'r ganib chiqish, turlichayorug'likda har tomondan kuzatish kerak. Bundan tashqari odam boshining plastic anatomiyasiga ham e'tibor berish kerak bo'ladi.

Dastlab odam yuzidagi elementlarning nisbatlarini aniqlab olish zarur. Ularni orqa, oldi va yon tomondan ko'rinishlarini tasavvur qilgan holda loy bilan ishlov berish kerak.

Haykalni yasash loyni sim sinchga yopishtirib olishdan boshlanadi. Sinchga loy surtishdan avval boshning katta qismlari va nisbatlari aniqlab olinadi (qosh, ko'z, burun, lab va hokazo).




16-rasm.Ikkinchibosqich.

Bir qismni yasab turib, modelning boshqa qismlaria nisbatlarini qarab borish kerak. Shuni esda tutish kerakki etyudni haddan tashqari batafsil bajarish uning

umumiyo ko'inishiga putur etkazadi. Shuning uchun faqatgina ushbu model uchun eng o'ziga xos belgi hislatlarini ko'rsatishga harakat qilish shart.


**Uchunchi bosqich:** Bu bosqichda vazifaning asosiy qismini bajarishga kirishiladi. Yuzning harakterli hususiyatlari, peshonaga nisbatan ko'z kosasining chuqurligi, burun kengligiga nisbatan ko'zlarning joylashishi, lab iyak va boshqlarning plastikasi aniqlashtiriladi. Oldingi bosqichda bajarilgan xomaki tasvirlar endi yanada aniqlashtiriladi. Odam boshining yuz qismi, yon tomonidan va orqa tomonidan ko'inishiga e'tibor beriladi. Ularni ishslash uchun loy mayda bo'laklar shaklida sekin-asta chaplab boriladi.



17-rasm. Uchinchi bosqich.

Tegishli joylar bo'rttirilib, ba'zi ortiqcha qo'yilgan loylar stek bilan olib tashlanadi. Bunda ham ish jarayonida o'quvchilar yasalayotgan shakllarning har tomonlama ko'inishlari qanday chiqayotganliklarini unutmasliklari, uni nazardan ochirmasliklari lozim. Buning uchun bot-bot kompozitsiyadagi shakllarining qay darajada ko'inishga ega bo'layotganligini old va orqa, shuningdek yon tomonlaridan kuzatib turish kerak.

**To'rtinchi bosqich:**Ishning bu bosqichida shaklarning berkitilgan va birlashgan joylarini belgilab olib (bunda tashqi ko'rinishdan emas, tuzilishdan kelib chiqib) namunaning umumiy holatlari belginadi. Yuz elementlarining gorizontal va vertikal bo'yicha nisbatlarini tobora aniqroq ishlashga o'tiladi.ko'zning qovoq qismi,ko'zning sferasi,qorachiqlari,burun kataklari,yuzdag'i ajinlar,iyak holatlari ishlanadi va kompozitsiyaning umumiy ko'rinishiga e'tibor qaratiladi.



*18-rasm. To'rtinchi bosqich.*


Ishning yakunida stek va qo'l izlari silliqланади.

## **XULOSA**

Bitiruv- malakaviy ishini bajarish mobaynida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Tasviriy amaliy va tarbiyaviy ahamiyati o'rganildi;
- Tasviriy san'atdan Davlat Talim Standartlarining mazmun va mohiyatini o'rganildi va tahlil qilindi;
- Mashur rassomlarning kompozitsiya sohasidagi tajribalarini o'rganildi va uni dokslarayoniga qo'llash nuqtai-nazardan tahlil qilindi;
- Kasb-hunar kollejlarida tasviriy san'at darslari, jumladan kompozitsion faoliyat darslarini o'qitishning zamonaviy metodlarini o'rganildi va tadqiq qilindi tegishli metodlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;
- Tarixiy shaxslar yoki taniqli kishilar buyustini yaratish va uning bajarilish texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

## I L L Y U S T R A T S I Y A L A R.



A.Rahmatullaev.Mirzo Ulug'bek.



I.Jabborov.Baxtiyor ona.



Saidolim Sharipov. Medallar



**J.Mirtojiyev. A.Navoiy. Yaponiya.**



**Usta Hamro rahimova.**



**U.Mardiyev.tinchlik xabarchisi.**

## **F o y d a l a n i l g a n   a d a b i y o t l a r :**

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 1998 y.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur”. 1998 yil.
3. Abdurasilov S. Tolipov N. “Tasviriy san’at o’qitish metodikasi” Toshkent, “Aloqachi”, 2007 yil.
4. Hasanov R. “Maktabda tasviriy san’at o’qitish metodikasi” Toshkeht, 2003 y.
5. Rahim Hasanov. Tasviriy san’atni o’qitish metodikasidan amaliy mashg’ulotlar. Birinchi qism. Toshkent-2006 yil.
6. Rahim Hasanov. Tasviriy san’atni o’qitish metodikasidan amaliy mashg’ulotlar. Ikkinci qism. Toshkent-2006 yil.
7. Oripov V.N. Oripov V.V. «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi». T, 2001 yil.
8. Abdurasilov S. Boymetov B. Tasviriy san’at. Toshkent, 2006 yii.
9. O’zbekiston Badiiy Akademiyatsi nashri. “O’zbekiston san’ati” majmuasi. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririyyati. T. 2001.
10. Abdullayev N.U. “San’at tarixi” . 1-tom. Toshkent. O’qituvchi, 1986 yil.
11. Abdullayev N.U. “San’at tarixi” . 2-tom. Toshkent. San’at, 2001 yil.
12. Oydinov N. “O’zbekiston tasviriy san’atidan lavhalar” T, O’qituvchi. 1997 yil.
13. Rahim Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. Toshkent. 2009 yil.
14. Rahim Hasanov, Hoshimberdi Egamov. Tasviriy san’atdan dars ishlamalari. Toshkent. 2013 yil.
15. San’at jurnali. Toshkent. 2009-2010-2011-2012 yillar to’plami.
16. O’zbekiston badiiy akademiyasi. “O’zbekiston haykaltaroshligi” 1991-2006 OOO MEDIALAND 2006 yil.
17. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
18. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
19. <http://www.ref.uz>.
20. <http://www.google.co.uz>
21. <http://pedagog.uz>

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ**

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ F.Ochilov  
“ ” 2015 yil

Talaba \_\_\_\_\_

Ta’lim yo‘nalishi: \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti o‘tilgan  
joy: \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi  
maqsadi: \_\_\_\_\_

Ish rejasi:

Bitiruv malakaviy ishi bo‘limi	Bitiruv malakaviy ishi bolimi nomi	Bajarish muddati

Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo‘lgan materiallar:

a) adabiyot manbalari:

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

b) qonuniy-me’yoriy hujjatlar: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

v) statistik va boshqa ma’lumotlar:

\_\_\_\_\_

Tasvirlash materiallari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Topshiriq berilgan kun: \_\_\_\_\_

Ishni topshirish muddati: \_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_

Kafedra mudirining bitiruv ishini himoyaga qo‘yish haqidagi xulosasi:

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

ta’lim yo‘nalishi  
ning malakaviy bitiruv ishi

**TAQRIZ**

Malakaviy ish mavzusi

---

---

Malakaviy ishning hajmi

A) yozma izoh qismi

V) grafik qismi

Malakaviy ishning dolzarbliji va berilgan topshiriqqa mosligi

---

---

---

Malakaviy ishning yozma izoh va grafik materiallarning tarkibi va bajarilishi sifati

---

---

---

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan texnika yutuqlari va ilg‘or tajriba natijalaridan foydalanganligi

---

---

---

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari

---

---

---

Malakaviy ish bahosi (maksimal baho 100)

Malakaviy ish rahbari:

(familiyasi, ismi sharifi)

“\_\_\_\_\_” 2015 yil

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

ta’lim yo‘nalishi  
ning malakaviy bitiruv ishi

**TAQRIZ**

Malakaviy ish mavzusi

---

---

Malakaviy ish mavzusining dolzarbliji va topshiriqqa mosligi

---

---

---

Malakaviy ishning yozma izoh grafik materiallarning tarkibi va bajarilish sifati

---

---

---

---

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg‘or tajriba natijalaridan foydalanganligi

---

---

---

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari va kamchiliklari

---

---

---

---

Malakaviy bitiruv ishining bahosi (maksimal 100-ball) va xulosa

---

---

---

---

Taqrizchi: \_\_\_\_\_

(imzo)

mansabi, ish joyi, F.I.SH.

“ \_\_\_\_\_ ” 20155 yil.

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ

“TASDIQLAYMAN”  
Kafedra mudiri F.Ochilov  
“ ” 2015 yil

Talaba Inna Qulova Temangil  
Ta'lim yo'naliши: 5110000 - Tasiriy minor va mukandilik  
Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:  
Hayk-hunar kollegazida hajktaferozlik donlatish tarkib ichda oqida shahar bo'yishni  
Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti o'tilgan  
joy: gurui shahar t-umunayi o'rta ta'lim roktabi  
Bitiruv malakaviy ishi rahbari: M.M. Shukurov  
Bitiruv malakaviy ishi  
maqsadi: Hayktaferozlik tarixi to'g'risida ma'lumotlari toploshi va uning organizatsiya

Ish rejasি:

Bitiruv malakaviy ishi bo'limi	Bitiruv malakaviy ishi bolimi nomi	Bajarish muddati
Kirish	Kirish	10.11.2014 y
I Bob	Hayktaferozlik minori	2015-yil yan
II Bob	Hayk-hunar kollegazida oqida shahar bo'yishni	2015-yil fevral
Kulosa		2015-yil aprel
Foydalanigan va e-narancsi tasiriy minori		

Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:

a) adabiyot manbalari:

Narimov d. A. Milliy istiqbol qo'sasi: qosiy tashuncha va temoyillar. 16 etaraxlop I Tolipov N. Tasiriy minorat oqitish metodikasi

b) qonuniy-me'yoriy hujjatlar: Ozbekiston Respublikasi oliv va ozler maxsus ta'llim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi 285-soni bilgisi

v) statistik va boshqa ma'lumotlar:

Tasvirlash materialari: Hayktaferozlik va Bepust imlahiga oid slayd va material

Topshiriq berilgan kun: 05.11.2014 y

Ishni topshirish muddati: 20.05.2015 y

Ilmiy rahbar: M.M. Shukurov

Kafedra mudirining bitiruv ishini himoyaga qo'yish haqidagi xulosasi:

BMI belgilangan folsobanalar oarojasida bojaniegou, izeki himoyaga forsya etomon.

D.Ochilov O.zent F.Ochilov

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Taqriban qurʼat va mukomayyid ga taʼlim yoʼnalishi  
Anʼnabiqulova Zimaqayil ning malakaviy bitiruv ishi

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi

Mark - hujjatot kollegeler uida baytaltaroni  
hujjatotlarini farzabil etish va oqchi  
chitlarni boshqat chalangga organizish.

Malakaviy ishning hajmi

55 - lit

A) yozma izoh qismi

Bild örn ming risdan orfigloq

V) grafik qismi

Malakaviy ishning dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi

Befuruw malakaviy effo mavzusi dolzarb  
bolib topshiriqqa mos keladi.

Malakaviy ishning yozma izoh va grafik materialarning tarkibi va bajarilishi sifati

Befuruw malakaviy effo oblikitor gapallar  
diy va ota manzus tolim oʻsasliqining  
2010-yilda qiyundagi 225-soni buyruqiga qayrilgan  
talablanga mojaracishda yozilgan

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan texnika yutuqlari va ilgʼor tajriba natijalaridan  
foydalanganligi

bild so internet materiallardan toʻliq  
faydalananligan holdor yozilgan

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari

B. M. I. sistemali raxsida farziviy  
malumotlardan foydalanilgan holdor  
moʼayuniga mos ravishda farziv  
keltirilgan

Malakaviy ish bahosi (maksimal baho 100)

Malakaviy ish 65 (oldmin beh) ball

Malakaviy ish rahbari:

M. M. Muhamadiyev   
(familiyasi, ismi sharifi)

“ 20 ” 05 2015 yil

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI

Jasoriy vaqt va mukomediylik ga ta'lim yo'nalishi  
Annotogulova Temirgul ning malakaviy bitiruv ishi

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi

Fan - hunar kollejovida haykaltaronalish  
darslarni tashkil etish va o'sqarish  
tarbiyiyut malakaviy degatish

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va topshiriqqa mosligi

Bifuru malakaviy iki uchun  
dolzab mavzu tanlangan va  
topshiriqqa mos keladi.

Malakaviy ishning yozma izoh grafik materiallarning tarkibi va bajarilish sifati

Bifuru malakaviy iki  
i rob o' qolimidan iborat bolib  
sifatlari bayarilgan

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajriba natijalaridan  
foydalanganligi

Bifuru malakaviy iki  
fan territorial yutuqlari ilgor  
tajribalar natijalar va interaktiv  
maslumotlaridan foysalolosilgan

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari va  
kamchiliklari

Bifuru malakaviy iki  
sizkimali uyezidor bayarilgan  
ramilar bilan bayarilgan va  
analiy imzalalardan e'ttisil  
gan bozi bir texnik kriterler  
uchraydi shun bu ishning saoyeng'an  
ta'si gilmayoli.

Malakaviy bitiruv ishining bahosi (maksimal 100-ball) va xulosa

Malakaviy iki 66 - ballga  
boholandidi

Taqrizchi: O'zb. R. Tazikov Akademiyasi Judo ko'rsat uquch-  
mabi o'ziga qarshi mad-t va fikrism kollejligi



mansabi, ish joyi, F.I.SH.

R. Tazikov

"20" 05

20155 yil.

